FARG'ONA VILOYATI BAG'DOD TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 11 - yanvar 4-11-152-Q/22 Bag'dod tumani hokimligi

Tumandagi avtotransport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Yo‘l harakat xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga(O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to‘plami, 2013 15-son 197-modda), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 dekabr 1010-sonli Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga “Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy baza, 26.12.2017 yil 09/17/1010/0461-son) hamda Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 31 yanvardagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to‘plami, 2003 yil 1-2-son, 17-modda) asosan tumandagi yuridik shaxslarga tegishli avtomototransport vositalarini 2021 yil texnik ko‘rikdan o‘tkazish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 dekabrdagi 1010-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qayd etilgan qaror bilan:

2021 yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxslarga tegishli yengil avtotransport vositalari tadbirkorlik sub’yektlari-yuridik shaxslar tomonidan majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman Ichki Ishlar Bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruhi (A.Jakbarov)ga

zarur shart-sharoitlarga (texnik diagnostika uskunalariga, ko‘tarish moslamalariga yoki qarab chiqish uchun chuqurlarga, nazorat o‘lchash asboblariga asfalt yoki beton qoplangan bir tekis gorizantal maydonchaga) va malakali mutaxasislarga ega bo‘lgan tashkilotlarga va texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalarida, tumandagi yuridik shaxslarga shu jumladan xorijiy yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining majburiy texnik ko‘rikdan (keyingi o‘rinlarda «texnik ko‘rik» deb yuritiladi) o‘tkazilishi taminlansin.

4. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

a) Tijorat asosida yo‘lovchilar tashish uchun foydalanadigan yengil avtomobillar, avtobuslar va o‘tiriladigan joylar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jixozlangan yuk avtomobillari, yirik gobaritli, og‘ir vazinli va xafli yuklarni tashish huchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari bir yilda ikki marta:

b) Ishlab chiqarilganiga besh yildan ko‘p bo‘lgan (ishlab chiqarilgan yili ham shu jumlaga kiradi) transport vositasidan tashqari – ikki yilda bir marta:

v) Ishlab chiqarilganini xisobga olgan xolda ishlab chiqarilganiga besh yildan ortiq transport vositalari (maskur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari)- 1 yilda bir marta:

g) Tirkamalar ko‘rikka, transport vositasi-shatakchi uchun belgilangan muddatlarda.

Birinchi marta -1 martdan 30 iyungacha:

Ikkinchi marta-1 sentyabrdan 30 sentyabrgacha:

Yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarining texnik ko‘rigi 2021 yil 1 martdan 30 iyunga o‘tkazilsin.

5. Tumandagi transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2021 yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazishni 1 va 2-bosqichi 2- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 31 yanvar 54-sonli qaroriga «Transport vositasining majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomi tasdiqlash xaqidagi qarorni 3-bandi talablaridan kelib

chiqib, Tuman mudofa bo‘limi, Ichki ishlar bo‘limi va Davlat xavsizlik xizmati xarbiy bo‘linmalari transport vositalari ko‘rsatib o‘tilgan idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi nazarda
tutilsin.

7. Tadbirkorlik sub’yektlari-jismoniy shaxslarga tegishli yengil avtotransport vositalarining texnik xolatini tekshirish bo‘yicha xizmatlari uchun to‘lovlarning cheklangan miqdorlari viloyat hokimligi tomonidan belgilangan ta’riflariga qat’iy amal qilinsin.

8.Majburiy texnik ko‘rik davomida komissiya tarkibiga ish olib borgan xodimlarning doimiy ish joylaridagi oylik ish haqlari saqlanib qolinsin.

9. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2021yil 27 fevraldagi 145-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

10.Ushbu qarorni ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari U.Yigitaliyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.v.b. **Dexqonov S. G.**